

## O'zbekistonning Mustaqillikka Erishishi Uning Boy Va Madaniy O'Tmishdan Saboq Olib Vatan Tarixini Chuqurroq Va Izchil Tadqiq Etishida Olib Borilgan Say Harakatlar

*Samatov Dilshodbek Toxirjonovich<sup>1</sup>, Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola vatanimizning mustaqillikka erishish jarayoni uning boy va madaniy o'tmishidan saboq olib vatan tarixini chuqurroq va izchil tadqiq etish jarayonida olib borilgan say harakatlar va erishilgan natijalar to'grisida keng fikr-mulohaza yuritadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, O'zbekiston tarixi davrlari, tarix, davlat, xalq, madaniy yodgorliklar, o'tmish, mustamlakachilik, mafkuraviylik.

### KIRISH

Har qaysi mamlakat, har bir xalqning uzoq va betakror tarixiga ega bo'lganidek, O'zbekistonning, o'zbek xalqining tarixi ham boy va sermazmundir. Tariximiz ildizlari necha-necha ming yillarga borib taqaladi. O'zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgan va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko'tarilgani barchamizga ma'lum.

XXI asr bo'sag'asida jonajon Vatanimiz tarixida buyuk voqea-qadimiy O'zbekistonning eng yangi tarixini boshlab bergan voqea sodir bo'ldi. 1991-yil 31- avgust kuni bo'lgan Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida o'zbek xalqining xohish-irodasi bilan O'zbekistonning davlat mustaqilligi, ozod va suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilindi va «Davlat mustaqilligi asoslari mustahkamlandi. 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzu-umidlari ushaldi, muqaddas maqsadi ro'yobga chiqdi, siyosiy mutelik va asoratdan qutildi. Dunyo 20-asr xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasidir. Vatanimiz tarixi mustaqillik xalqimizga nihoyatda qimmatga tushganidan, bu yo'lda katta qurbonlar berilganligidan guvohlik beradi. Endilikda xalqimizning o'z taqdiri o'z qo'lida, o'z mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash yo'lida astoydil mehnat qilmoqda. O'zbekiston mustaqillik tufayli xalqaro maydonga chiqdi, davlatimiz mustaqilligini dunyodagi barcha nufuzli davlatlar tan oldi, jahon hamjamiyatiga qo'shildi, barcha katta-yu kichi mamlakatlar doirasida o'zining munosib o'rnini egalladi.

### MATERIALLAR VA USULLAR

Respublika tarkibida 12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi, 165 qishloqtumani, 120 shahar va 116 shaharcha, 1421 qishloq (ovullar) mavjud. O'zbekistonda 100 dan ortiq millatlar va elatlarning vakillari bo'lgan, 25 millionga yaqin kishi yashaydi. Aholini to'rt dan uch qismiga yaqini o'zbeklardir. Respublika aholisining yarmidan ko'proq qismi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Aholining 60 foizga yaqinini bolalar, o'smirlar va 25 yoshga etmagan yigit-qizlar tashkil etadi.

<sup>1</sup> Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti dekani pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

<sup>2</sup> Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi



Ajdodlarimiz barpo etgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi ko'hna shaharlar bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohiga aylangan. O'zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy davlat va jamoat arboblari, ziyoratchilar bu shaharlarni, ulardagi ajoyib tarixiy, milliy me'morchilik majmualari va yodgorliklarni ko'rib, ularda mujassamlashgan xalq ustalarining iste'dodi va yuksak badiiy mahoratiga qoyil qolib, ularga tahsinlar o'qimoqdalar, tazim qilmoqdalar. Muqaddas yerimiz orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li Osiyo va Evropadagi xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga bog'lab turgan, xalqaro hamkorlikka xizmat qilgan.

O'zbekiston tarixi ajdodlarimizning yashash uchun kurash, uzluksiz mehnat tufayli takomillashib borish va hozirgi odamlar darajasiga ko'tarilish jarayonini, dini, yozuvi, ilm-fani, adabiyot va san'atini yoritadi. Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayonini, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni, davlatlarning tashkil topishi va ularning ichki va tashqi siyosatini o'rgatadi. Vatanimiz tarixi xalqimizning ma'lum bir davrlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lib qolganligini, qaramlik azobining naqadar ayanchli, mashaqqatli bo'lganligini, ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashini va bunda mardlik, jasorat ko'rsatgan xalq qahramonlari va davlat arboblari faoliyatlarini keng rejada o'rgatadi.

Xalqimizning buyukligi, kuchi, uning boy ma'naviy merosga ega ekanligi bilan belgilanadi. Xalqimizning ma'naviy poydevori juda qadimiy va mustahkam. Ajdodlarimiz yetishtirib bergan o'nlab, yuzlab jahonga mashhur olimu-ulamolar, me'moru-binokorlar, naqqoshlar, zargarlar, hunarmandlar, davlat arboblari, xalq qahramonlari hayoti, dunyoda birinchilar qatorida bunyod etilgan ilm va ta'lim maskanlari faoliyati talaba-o'quvchilar uchun katta ibrat maktabi, tarix sabog'idir. Kelajak uchun intilayotgan yoshlar uchun bu boy ma'naviy meros mustahkam tayanchidir.

Vatan tarixi xalqimizning asrlar davomida ko'pgina xalq, elatlar bilan ahl, hamjihat bo'lib yashaganligidan, yurtimizda turli diniy e'tiqodlar erkinligi va inoqligi bo'lganligidan guvohlik beradi. Bu mustaqil O'zbekistonda yashovchi turli dinlarga e'tiqod qiluvchi 120 dan ortiq millat va elatlar o'rtasida tinchlik, milliy totuvlik, birodarlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi tarixiy saboqdir. Kelajagi buyuk davlat qurayotgan bugungi avlodlar uchun o'zbek davlatchiligi tarixi, ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelgan siyosiy-huquqiy institutlar, qonun-qoidalar tajribasi O'zbekistonning mustaqilligini yanada mustahkamlash, huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurishda mustahkam tayanch va madadkoridir. Tarixiy xotira, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni egallash talaba-o'quvchilarda halollik, odillik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.

Vatanimiz tarixini tadqiq etish, o'rganishda uni to'g'ri davrlashtirishning ahamiyati kattadir. Sovetlar xukmronligi davrida sobiq SSSR tarkibidagi yuzdan ortiq xalqlar tarixi, jumladan, bizning Vatanimiz tarixi sinfiy kurash, inqilobiy harakatlarga asoslangan marksistik formatsion g'oyaga bo'ysundirilgan holda davrlashtirildi. Barcha xalqlar tarixi besh davrga: ibtidoiy jamoa tuzimi, quldorlik tuzimi, feodalizm, kapitalizm, sotsializmga va kommunizmga bo'lindi. Bunday davrlashtirishning maqsadi jamiyat taraqqiyoti insoniyatni albatta kommunizmga olib boradi, degan «g'oyani» ilgari surish va oqlashdan iborat edi. Bu g'oyaning qanchalik to'g'riligini XX asrda ko'pgina xalqlar taqdirida sinab ko'rildi, pirovard natijada fojiali oqibatlariga olib keldi. Hammani tenglashtirish g'oyasi amalda mulkdorlar, badavlat tabaqalarni kambag'allar, yo'qsillar darajasiga tushirdi, jamiyatda ommaviy loqaydlik, dangasalik, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqardi. Shu bois insoniyat XX asr oxirlariga kelib bu g'oyani o'z yelkasidan uloqtirib tashladi, butun dunyoda «sinfiy qadriyatlar»dan milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustunligi e'tirof etildi. O'zbekistonning, o'zbek xalqining boy, betakror tarixi bo'lib, uning o'ziga xos tarixiy taraqqiyot davrlari bor. Uni quyidagi yirik davrlarga bo'lish mumkin:

1. Ibtidoiy jamiyat. Qadimgi davr.
2. Q'rta asrlar davri.
3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri.
4. Sovetlar istibdodi davri.



## 5. Milliy istiqlol davri.

O'zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o'tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantiradi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, yurtimiz tarixi «Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko'z qorachig'iday avaylab asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga o'rgatadi. O'zimizning boy o'tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi». Davlat mustaqilligini o'z qo'liga olgan ozod, hur O'zbekistonda Vatan, istiqlol taqdiri bugungi baxtli avlodlar qo'lida. Mustaqillikni asrab-avaylash, mustahkamlash, mamlakatimizni keyingi avlodlarga yanada qudratli, obod, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan holda yetkazish zamonamizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi. Bu mas'uliyatli, ayni paytda sharaflil vazifaning qay darajada ado etilishi bugungi avlodlarga, xususan yoshlarga, ularning ma'naviy barkamolligiga bog'liq. «Biron bir jamiyat, - deb ta'kidlaydi yurtboshimiz Islom Karimov, - ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma'naviyat va ma'rifatdadir. Ma'naviy barkamollikni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omildir. «Ma'naviyat, - deb yozadi Islom Karimov, - o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi», Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson». Insonda tarixiy xotira o'z Vatani tarixini, o'z xalqi, ajdodlari tarixini bilish orqali shakllanadi. Vatanimiz tarixi millatning, yoshlarning haqiqiy tarbiyachisiga aylanmoqda. Bu borada Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi», «Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir» degan ifodali so'zlari va ko'rsatmalari dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Tarix talaba-o'quvchilarda olam yagona va yaxlit, O'zbekiston uning ajralmas bir qismi, olamda sodir bo'ladigan voqea, hodisalar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda ekanligi to'g'risida to'g'ri tasavvur, tushunchalarni shakllantiradi. O'z o'tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo'ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O'tmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab yetgan inson hozirgi zamonni yaxshi tushunadi, kelajakni to'g'ri tasavvur etadi. Muxtasar qilib aytganda, Vatan tarixi xalqning o'tmishi, hozirgi zamon va kelajagi yagona tarixiy jarayon degan tushunchani shakllantiradi. Bu o'z navbatida insonlarni tarixiy jarayonlarning oddiy kuzatuvchisi bo'lib qolishdan saqlaydi, ularni olg'a intilishga, taraqqiyotga ko'maklashishga undaydi.

## NATIJALAR

Birinchi prezidentimiz I.Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta'kidlab, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”, “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” nomli asarlarida “O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi”, “Tarix-xalq ma'naviyatining asosidir” degan so'zlarida tarixiy haqiqatni va ma'naviy o'zlikni anglashga undovchi teran fikrlar mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Sovet Ittifoqi tarkibidan chiqish to'g'risida qaror qabul qilganida O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilindi. Bu O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo tarixida muhim voqea bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqea Sovet Ittifoqining qulashi bo'ldi. Bu Glasnost va Perestroyka tomonidan amalga oshirilgan bir qator islohotlar tufayli mumkin bo'ldi. Bu islohotlar SSSR tarkibidagi milliy respublikalarga Moskva nazoratidan chiqib, o'z mustaqilligini e'lon qilish imkonini berdi. O'zbekistonning mustaqil bo'lishi mamlakatning to'la mustaqil bo'lib, boshqa davlatlar ta'siridan xoli bo'lishini anglatardi. Bu esa o'z an'analari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyot, siyosat va madaniyatni rivojlantirish imkonini berdi.



O‘zbekistonning mustaqillikka erishgani o‘zbek xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga, o‘z kelajagini tanlash erkinligiga ham ega bo‘ldi. Bu O‘zbekistonda demokratiya va erkinlik sari muhim qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqilligining tarixiy ahamiyati shundan iboratki, u mamlakat tarixida yangi bosqichning boshlanishi bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqil rivojlanish, kuchli, mustaqil davlat bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu o‘zbek madaniyati, an‘analari va tilini asrab-avaylash va rivojlantirish imkoniyatini ham anglatardi. Umuman olganda, O‘zbekiston mustaqilligi mamlakat va butun Markaziy Osiyo uchun katta ahamiyatga ega. Bu O‘zbekistonning o‘z talab va manfaatlariga mos ravishda rivojlanishi, jahon hamjamiyatidagi rolini kuchaytirish imkonini berdi. Inson uchun ozodlikdan qadrlil ne‘mat yo‘q. Ya‘ni 1991-yil 1-sentabr xalqimizning ma‘naviy hayotida beqiyos o‘rin egallagan har yili eng ulug‘, eng aziz bayram sifatida katta shodu xurramlik bilan nishonlanadigan qutlug‘ ayyomga aylandi. 1- Prezidentimiz Islom Karimov “Mustaqil o‘zbek davlati-xalqimizning tarixiy yutug‘idir. Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O‘zbekiston chinakam mustaqillikni qo‘lga kiritib, gullab yashnadi va farovonlikka erishishi taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rinni egallash – biz ko‘zlayotgan oliy maqsaddir” deydi.

O‘tgan 25 yil ichida O‘zbekiston tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi. Prezidentimiz Islom Karimov “Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi” deb ta‘kidlaydi. Yurtimizda kun sayin bunyodkorlik ishlari jadallashmoqda: diyorimizda qad ko‘targan muhtasham binolar, dilni yayratadigan istirohat bog‘lari, ko‘zni quvnatadigan ko‘priklar bunyod etilmoqda. Inson uchun ozodlikdan qadrlil ne‘mat yo‘q. 1991-yil 1-sentabr xalqimizning ma‘naviy hayotida beqiyos o‘rin egallagan har yili eng ulug‘, eng aziz bayram sifatida katta shodu xurramlik bilan nishonlanadigan qutlug‘ ayyomga aylandi. 1-Prezidentimiz Islom Karimov “Mustaqil o‘zbek davlati-xalqimizning tarixiy yutug‘idir. Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O‘zbekiston chinakam mustaqillikni qo‘lga kiritib, gullab yashnadi va farovonlikka erishishi taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rinni egallash – biz ko‘zlayotgan oliy maqsaddir” deydi. Yurtboshimizni tashabbusi bilan tilimiz, dinimiz, milliy g‘ururimiz, Navro‘z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, kabi milliy bayramlarimiz qayta tiklandi. Yurtdoshlarimiz haj va umra safarlariga erkin borib keladigan bo‘ldi. Davlat ramzlari qabul qilindi. Ilgari nomi ham, asarlari ham bizdan sir tutilgan buyuk ajdodlarimiz yana o‘zimizga qaytdi. Toshkentdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Hazrati Imom, Samarqanddagi Imom Buxoriy, Urganchdagi Jaloliddin Manguberdi, Termizdagi Alpomish yodgorlik majmualari kabi ko‘plab maskanlar mustaqillik sharofati bilan barpo etildi, qaytadan obod qilindi. Mustaqillikka erishgach milliylikimiz, ma‘naviyatimiz, qadriyatlarimiz, madaniyatimiz qayta tiklandi. Eng e‘tiborli jihatlardan yana biri bu O‘zbek halqining o‘zligini anglashda va butun jahon ko‘z o‘ngida o‘z bayrog‘ini baland hilpirashida keng imkoniyatlar ochib berdi,

Vatan tarixi yoshlarda jamiyatda ertaroq mustaqil faoliyat yuritish, o‘z qobiliyatini to‘laroq ochish va hayotga tatbiq etish sifatlarini shakllantiradi, Vatan, xalq taqdiri uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi yuksak ma‘naviy burchni tarbiyalaydi, milliy g‘oya bilan shakllantiradi. Shu boisdan Vatan tarixini har tomonlama, chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga molik vazifadir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytish mumkinki jamiyatning har bir azosi dast avval o‘zligini anglash kerak. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli risolasida o‘zlikni anglash tarixni anglashdan boshlanadi. Tarixni yaxshi bilmasdan turib yuksak mavqega erishib bo‘lmaydi. Ma‘naviyatni tiklash tug‘ilib o‘sgan yurtda o‘zini boshqalardan kam sezmay boshini baland tutib yurish uchun insonga tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotira inson irodasi hisoblanadi. Tarix insonni hushyorlikka o‘rgatadi irodani mustahkamlaydi. Har bir inson o‘z vatinini tarixini yoritish, o‘qitish va o‘rganish jarayonida chuqur ilmiylik, ilmiy-nazariy tushunchalar va tasavvurlar shakllanishi zarur. Nega deganda tarixiy voqea va hodisalarni bilmasdan ular haqida tushuncha va tasavvurga ega bo‘lmasdan g‘oyaviy-siyosiy dunyoqarash haqida gap yuritish mumkin emas. Vatan tarixini har bir satri har bir varog‘i milliy qadriyatlarga hurmat ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lishi shu bilan birgalikda



milliy g'oya va milliy mafkurasini kamol topishiga xizmat qilishi darkor. Vatanimiz tarixi mustaqil respublikamizning siyosiy-iqtisodiy madaniy-ijtimoiy qadriyatlarini yanada mustahkamlanishi va ravnaq topishiga hizmat qilishi, davr va zamon bilan hamnafas bo'lmog'i ayni muddaodir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. I.Karimov. Sharq 1998. Toshkent.
2. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston 2016. Toshkent.
3. O'zbekiston tarixi. R. Murtazaeva umumiy taxriri ostida. Yangi asr avlodi 2003. Toshkent.
4. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov. Sharq 2013. Toshkent.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jildlik. Toshkent.
6. Vatan tarixi. R.Shamsutdinov. Sharq 2016. Toshkent.

